

Qozon, Novosibirsk va Samara shaharlaridan Toshkentga qo'shimcha charter qatnovlari

2020 8 October

Hurmatli yo'lovchilar!

"Uzbekistan airways" aviakompaniyasi 2020-yil 16-oktyabrda Qozondan Toshkentga, 2020-yil 17-oktyabrda Samaradan Toshkentga va 2020-yil 20-oktyabrda Novosibirskdan Toshkentga qo'shimcha charter qatnolari amalga oshirilishi to'g'risida xabar beradi.

Yo'nalish	Reys raqami	Uchish/kelish vaqti	
Qozon - Toshkent	HY 3650	11:00/16:30	Chipta sotib olish
Samara - Toshkent	HY 3654	10:30/14:35	Chipta sotib olish
Novosibirsk - Toshkent	HY 3668	02:30/03:30	Chipta sotib olish

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga havo qatnoviga O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Qirg'iziston fuqarolariga PZR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda amal qiluvchi) majburiy ravishda taqdim etish sharti bilan ruxsatli beriladi. PZR ma'lumotnomasiga ega bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniyaning parvozlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, shuningdek, "Uzbekistan airways" AJning eng yaqin savdo ofislaridan yoki mintaqangizdagi savdo agentlaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan xursand bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlarni tilaymiz!